

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 140 (1201), 2024-yil 13-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



VILOYAT IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH USTUVOR MAQSADGA AYLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aholi hayoti, hududlar rivoji bilan yaqindan tanishish maqsadida 11-12-iyul kunlari Farg‘ona viloyatida bo‘ldi.



Tashrifning ikkinchi kuni Quva tumanida Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z bo‘yotgan aholi talabini ta‘minlash uchun iqtisodiyotni izchil rivojlantirish zarurligini ta‘kidladi.

— Farg‘ona katta viloyat. Hozirgi kunda aholi 4 milliondan oshdi. Bunday o‘shish bilan 2030-yilga borib, 5 millionga yetadi. Bu aytishga oson. Lekin ushbu raqam ortida qancha mas‘uliyat va javobgarlik bor. Har yili yangi bog‘cha va maktablar, uylar qurish, yuz minglab ish o‘rinlari yaratish zarur. Shuning uchun hozirgi tahlikali zamonada qanday qilib

iqtisodiyotimizni barqaror qilamiz, degan savol hammamizni qiyinashi kerak, — dedi Prezident.

So‘nggi yetti yilda viloyatda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Yo‘l, suv, yer, uy-joy, ta‘lim va tibbiyot infratuzilmasi yaxshilandi. Kiritilgan investitsiyalar hajmi 3 karra o‘tdi. Tovar aylanmasi 10 million dollardan oshgan 122 ta korxonaga paydo bo‘ldi.

Eksport ham oshyapti. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yili 722 million dollarni tashkil etdi. Farg‘onalik korxonalar 60 ta yangi bozorga kirib bordi.

Lekin 19 ta korxonada quvvatlar pasaygan. 3 ta loyihani ishga tushirish kechikkan. 6 ming 700 ta korxonada ish o‘rinlari

kamaygan. O‘tgan yili eksport qilgan 135 ta korxonada bu yil hali chetga mahsulot sotmagan.

Viloyat sanoat o‘shishi bo‘yicha respublikada eng oxirgi o‘rinda. Shuncha sharoit bo‘la turib, Farg‘onada o‘tgan yili bor-yo‘g‘i 220 million dollarlik meva-sabzavot eksport bo‘lgan. Atigi 30 foiz ip-kalava qayta ishlanmoqda.

Ro‘yxatga olingan 545 ta tadbirkor hisobraqam ochmagan, mingdan oshig‘i bank orqali aylanma qilmagan. Shu bois, ishchilar to‘layotgan daromad solig‘ining yarmini tuman budjetida qoldirish masalasi qo‘yildi. Bu orqali tumanda manfaat ko‘payishi, tadbirkorlarni “soyadan” chiqarishi aytiladi.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ko‘p ishlar bajarildi. Ishsiz va muhtojlarga bank-moliya orqali ko‘maklashish yo‘lga qo‘yildi. Endi yangicha yondashuvga ehtiyoj sezilyapti.

Davlatimiz rahbari buni Bog‘dod tumani misolida tahlil qilib, tizim takomillashtirishini aytdi.

— Kambag‘al deb qancha nafaqa to‘laganimiz bilan, ish topib bermasak, yana ijtimoiy yordamga qayta-qayta kelaveradi, boqimandalik kuchayib boraveradi. Shu bois, endi kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bir tizimda bo‘ladi. Buni respublikada Ijtimoiy himoya agentligi boshqaradi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining 10-iyuldagi qaroriga ko‘ra, “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasining hududi Quvasoy shahrining Pakana, Kokilon va So‘fon mahallalaridagi 210 gektarga kengaytirildi. U yerda 2026-yil oxirigacha kamida 1 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalar o‘zlashtirilishi, 11 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilishi, yiliga 965 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi belgilangan. Mutasaddilarning bu boradagi vazifalari yana bir ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, Xitoy tajribasi asosida 19 ta tuman-shaharning har biri sanoatining aniq

yo‘nalishiga ixtisoslashtirilib, sanoat zonalarini tashkil qilindi.

Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish va ish o‘rinlarini ko‘paytirish sharti bilan qo‘shimcha 1 ming 210 gektar yer ajratiladi. Buning uchun viloyat hokimligi huzurida direksiya tashkil qilinib, ushbu yerlar uning ixtiyoriga beriladi. Mahalliy tadbirkorlar sanoat zonalaridagi binolarni ijaraga yoki muddatli sotib olishi mumkin bo‘ladi.

Sanoatni tuman va mahallaga tushirish uchun infratuzilma xarajatlariga 50 million dollar ssuda ajratiladi. 161 ta yirik mahallada ham 4-5 qavatli sanoat markazlari tashkil qilinadi.

Davomi 2-beta

FARG‘ONA SHAHRIDAGI “YANGI O‘ZBEKISTON” BOG‘INING OCHILISHIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIM ISHTIROKCHILARIGA

Qadrlil vatandoshlar!

Hurmatli Farg‘ona ahi!

Avvalambor, siz, azizlarni “Oltin vodi” durdonasi bo‘lgan Farg‘ona shahrida bunyod etilgan muazzam majmua — “Yangi O‘zbekiston” bog‘ining ochilishi bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Hech shubhasiz, Yangi O‘zbekistonimizning yana bir mo‘jizasi bo‘lgan mana shunday go‘zal va betakror bog‘ning barpo etilishi haqida so‘z yuritganda, sizlar bilan 2021-yil 28-sentabrda Prezident saylovi arafasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvimizni esga olishimiz tabiiydir. O‘shanda Farg‘ona shahrida 300 gektar maydonda Ekoshahar va “Yangi O‘zbekiston bog‘i”ni barpo etish haqida kelishib olgan edik.

O‘tgan davr mobaynida bu ulkan loyihani ro‘yobga chiqarish masalasi siz, azizlar bilan birgalikda yana bir necha bor muhokama qilib, fikr almashgan edik. Kuni kecha ushbu hududda barchamiz orzu qilgan, zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘i qurib bitkazilganini ko‘rib, g‘oyat xursand bo‘ldim.

Ushbu istirohat bog‘i milliy an‘analimiz va jahondagi ilg‘or bog‘lar andazalariga mos holda, yuksak talablarga ega bo‘lganini alohida ta‘kidlashni istardim.

Jonajon O‘zbekistonimizning yorqin tim-sollaridan biri sifatida qad rostlagan bunday

fayzli va muhtasham maskan barchamizga muborak bo‘lsin!

Aziz do‘stlar!

Sizlarga yaxshi ma‘lumki, mamlakatimizda amalga oshirayotgan barcha o‘zgarish va islohotlarimiz zamirida inson qadri yuksaltirishdek buyuk maqsad mujassamdir.

Bugun sizlar bilan birgalikda Farg‘ona zaminida shu euzu maqsad yo‘lida yana bir ulkan amaliy qadam qo‘yidik, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Chindan ham, 70 gektar maydonni egalagan, o‘zining betakror qiyofasi, noyob manzarali daraxtlari, zamonaviy dam olish infratuzilmasi bilan mamlakatimizda alohida o‘rin egallaydigan ushbu muazzam istirohat bog‘ini aylanar ekanimiz, u shu yurtning egasi bo‘lgan vatandoshlarimiz uchun, ularning baxtu saodati uchun xizmat qiladigan so‘lim va tarovatli maskan sifatida bunyod etilganiga ishonch hosil qilamiz.

Ayniqsa, bu yashil makonning 65 ming aholi uchun mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivi hududida barpo etilganining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Keksa-yu yosh barcha shahar ahli, mehmonlar va turistlar bu yerda ko‘ngilli dam olishi, tabiat bilan oshno bo‘lib, bu zaminning musaffo havosidan bahramand bo‘lishi uchun barcha sharoitlar yaratilganini diqqatga sazovordir.

Bog‘ hududida 55 kilometr irrigatsiya tarmoqlari, 11 ta sug‘orish quduqlari, 16 kilometrdan ziyod uzunlikdagi kanal barpo etilgani, bu yerni 32 ming tup buta va manzarali daraxtlar bezab turgani, aziz bolajonlarimiz uchun o‘nlab turdagi zamonaviy attraksionlar o‘rnatilganini ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Kecha men bog‘ hududida O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning ardoqli farzandi, rahmatli Lolaxon Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi uchun barpo etilgan yangi bino bilan ham tanishdim.

Ishonchim komilki, ushbu bilim maskanidan kelgusida Lolaxon opaning ko‘plab munosib izdoshlari yetishib chiqadi.

Bu yerdagi yana bir muhim madaniy inshoot — 4 ming tomoshabing mo‘ljallangan zamonaviy amfiteatr haqida alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Barchamizga ayonki, Farg‘ona — buyuk san‘atkorlar va ijodkorlar yurti. Bu go‘zal zaminidan yetishib chiqqan Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboyeva, Saodat Qobulova, Tamaronim, Ma‘murjon Uzoqov, Jo‘raxon Sulonov, Tavakkal Qodirov, Murodjon Ahmedov kabi el suygan atqli san‘at ustalari, O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov, shuningdek, Yo‘ldosh Sulaymon, Oxunjon Hakimov, Anvar Obidjon, Enaxon Siddiqova singari hassos shoir va

adiblar xalqimizning faxr-u g‘ururi hisoblanadi.

Bugun mana shunday shukuhli makonda ana shunday ulug‘ zotlarning, ta‘bir joiz bo‘lsa, ruhi poklari ham shod bo‘lmoqda, desak, yangilishmagan bo‘lamiz.

Mazkur amfiteatr sahnasi Farg‘ona vodiysining, xususan, maqom va askiya kabi nodir san‘at an‘analarini davom ettiradigan iste‘dodli yoshlarimiz uchun o‘ziga xos ijodiy parvoz maydoniga aylanadi, ular o‘zlarining yangi-yangi asarlarini xalqimizni xushnud etib, milliy madaniyatimiz ravnagiga munosib hissa qo‘shadilar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, jonajon Vatanimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami arafasida Farg‘ona ahliga, butun xalqimizga mana shunday munosib sovg‘a tayyorlagan qo‘l-gul quruvchi va muhandislarga, me‘mor va bog‘bonlarga, mutasaddi rahbarlarga, bu euzu ishga hissa qo‘shgan barcha-barcha yurtdoshlarimizga chin qalbidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Farg‘ona elining mana shunday savobli ishlari yanada ko‘paysin, xalqimizning barcha euzu orzu-umidlari ro‘yobga chiqsin!

Ushbu so‘lim va betakror maskan barchamizga yana bir bor muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligiga

JO‘SHQIN EVRILISHLAR

oddiy hayotda katta tafakkurlarni ulg‘aytirmoqda

O‘zbekiston janubida joylashgan bu vo‘ha o‘ziga xos tarixi, tabiati, qadriyatlar bilan ma‘lum va mashhur. Odamlari tanti va mard. Bilganimiz, ana shu tanti odamlarning aksariyati bundan yetti-sakkiz yil burun yurtidan tashqariga ishlash uchun ketar, qaytganda o‘z manzillari tarraqqiyotdan uzilib qolgandek tuyulaverardi. Kishilar ham chetda ko‘rganlarini alohida “tayoorgarlik” bilan bayon etishar: “Ehhe, biz ulardan 20-30 yillar ortdamiz, hali-beri ulardek bo‘lmaymiz”, deyilardi.

Vo‘ha ham garchi uch qo‘shni davlat bilan chegaradosh bo‘lsa-da, yo‘llar yopiqlik, mamlakat ichidan birgina Qashqadaryo tomondan keluvchi yo‘lga ko‘z tikilardi, xolos.

Ulkun evrilishlar shunday sodir bo‘ladiki, bir vaqtning o‘zida uning zarbi dunyo shovqinidan qochib, purviqor tog‘larda otarini o‘tlatib yurgan qo‘ychuvonning oddiy

hayotidan tortib, jabhalar, tarmoqlar, sohalar, tizimlarga, hattoki katta-yu kichikning tafakkurida-da katta o‘zgarish yasaydi.

Ana shu evrilishlar, ana shu to‘lqin esa bora-bora renessanslar yaratgan. Mamlakat janubidagi Surxon vohasining bugungi qiyofasi qanday, deysizmi?

Davomi 3-beta

Yangicha yondashuvlar

Har qanday voqelik, jarayon, harakat yoki hodisasi ilmiy jihatdan anglash uchun uning yuzaga kelishi yoki shakllanishida qo‘llanilgan usullar, qoida va tartib-taomillarni bilish zarur. Usul va qoidalar majmui uslubiyat (metodologiya) deb ataladi. Shuningdek, uslubiyatga yana ilmiy bilim, voqelikni anglash va o‘zgartirishning algoritmi sifatida ham qarash mumkin.



Aholi soni va harakati, shuningdek, ular bilan bog‘liq boshqa ma‘lumotlar doim jamoatchilik e‘tiborida bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar nafaqat davlat idoralari, ilmiy soha yoki ommaviy axborot vositalari vakillari, balki xalqaro jamoatchilik hamda oddiy fuqarolar uchun ham juda qiziq. Shu bois, demografik ko‘rsatkichlarning joriy hisobini yuritish va umuman olganda, demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish tizimi yanada takomillashtirildi.

RASMIY STATISTIKA

Jahon standartlariga moslashayotgan tizim



Dilshod ZOKIROV,
Statistika agentligi
boshqarma boshlig‘i

Tarixga nazar solsak, qadim-qadimdan har qanday fan, soha yoki kashfiyotlarning yaratilishi yoki ularning o‘zgarib, takomillashtirib borishi ma‘lum bir uslubiyatga asoslangan holda amalga oshgan.

Buyuk ajdodlarimiz Forobiy, Xorazmiy, Beruniy va Abu Ali ibn Sino fan uslubiyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Aristotel merosini o‘rganish uchun Forobiy hatto o‘zining maxsus sharhlash uslubiyatini yaratgan. Ibn Sino esa Aristotelning “Metafizika” asarini 40 marotaba o‘qib chiqsa ham hech narsaga tushunmaganini, uning mazmuniga faqat Forobiy sharhlarini o‘qigandan so‘ng nagina tushunib yetganini o‘z xotiralarida yozib qoldirgan.

Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi statistika tashkil etish va uni rivojlantirishda ham ilmiy yondashuvlar, ya‘ni uslubiyatning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, rasmiy statistika sohasida beg‘arazlik va xolislik prinsipi roya qilish rasmiy statistika ma‘lumotlarini ilmiy asoslangan va barcha foydalanuvchilarga bir xil munosabatda bo‘lgan holda shakllantirishni anglatadi.

Qayd etish lozimki, rasmiy statistika tayyorlash hamda tarqatishda foydalaniladigan usul, qoida va prinsiplar tizimi statistika uslubiyatlarini hisoblanadi.

Milliy qonunchilikka muvofiq, rasmiy statistika shakllantirish chog‘ida statistika uslubiyatini qo‘llash majburiy. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat olib boruvchi har bir rasmiy statistika tayyorlovchi statistika ma‘lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlarida doirasida muvofiqlashtirib boradi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan rasmiy statistika sohasiga oid uslubiyatlarini ishlab chiqish, yuritish va rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi qabul qilinishi bu boradagi islohotlarni yanada samarali amalga oshirish, rasmiy statistika ma‘lumotlarini shakllantirishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarni keng qo‘llash imkonini yaratdi.

Chunonchi, agentlik tizimida rasmiy statistika ma‘lumotlarini shakllantirish va tarqatishda qo‘llaniladigan statistika uslubiyatlarini tayyorlash va tasdiqlash ishlari xalqaro uslubiyat hamda tavsiyalar, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Xususan, milliy statistika tizimiga xalqaro sifat modellari, jumladan, Statistik ma‘lumotlarning universal modelini (GSIM) tatbiq etish doirasida agentlik tomonidan statistika uslubiyatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha umumiy qoidalar tasdiqlanib, amaliyotga joriy etildi. Bu esa, o‘z navbatida, statistika faoliyatini tashkil etishga oid barcha statistika uslubiyatlarini yagona tartib-taomillar asosida ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, ushbu jarayonlarni soddalashtirish, tizimlashtirish, muvofiqlashtirish va amaliyotda qo‘llash imkonini berdi.

Har bir ma‘lumot hisobda



Statistika amaliyotida uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuv natijalari ijtimoiy jarayonlarning aholi turmush darajasiga ta‘sirini o‘rganish va farovonlikni oshirishga qaratilgan qo‘shimcha choralarini ishlab chiqishda asos bo‘ladi. Ushbu kuzatuv natijalaridan aholi turmush darajasi, ta‘lim, atrof-muhit, sog‘liqni saqlash, kambag‘allik ko‘rsatkichlari, iste‘mol narxlar indeksini hisoblashda, milliy hisoblar tizimida uy xo‘jaliklari sektori hisoblarini tuzish va boshqa statistik hisob-kitoblarda foydalaniladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro taqqoslash dasturidagi ishtiroki doirasida uy

xo‘jaliklari xarajatlarini aks ettirishda qo‘llaniladi.

Jadal o‘zgarishlar yuz berayotgan O‘zbekistonda qurilish sohasi keng ko‘lamda rivojlanib, aholi uchun yangi uy-joylar barpo etish, qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi tobora oshib bormoqda. Shuningdek, aholi daromadlari oshishi va turmush darajasining o‘sib borishi yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar ko‘lamining tez sur‘atlarda ko‘payishiga imkon yaratib bermoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, qurilish sohasida statistika kuzatuvlarini yanada takomillashtirish, qurilish ishlari, jumladan, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi holati va ishlab chiqarilayotgan qurilish

mahsulotlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shakllantirish uslubiyatini muntazam maqbullashtirib borishni taqozo etadi.

Ushbu maqsadlarda agentlik tomonidan ishlab chiqilgan qator uslubiy hujjatlar qurilish sohasida kuzatuvlar sifatini yanada oshirish, statistika ma‘lumotlarini har tomonlama chuqur tahlil etish imkoniyatini kengaytiradi.

Ma‘lumki, tashkilotlarning innovatsion faolligi hamda joriy qilingan innovatsiyalar natijalarining ta‘sirini kuzatuvlarini o‘tkazish orqali innovatsiya sohasida statistika ko‘rsatkichlari shakllanadi.

Bu ma‘lumotlar innovatsion faoliyatga to‘g‘ri keluvchi omillarni o‘rganish, shuningdek, tashkilotlar tomonidan tatbiq etilgan innovatsiyalarning iqtisodiy samarasini aniqlash imkonini beradi.

Agentlik tomonidan shu maqsadda joriy etilgan uslubiy hujjat respublika, xususan, hududlarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash jarayonlari va natijalari to‘g‘risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma‘lumotlarini shakllantirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Bundan tashqari, aholining davlat pensiya ta‘minoti va ijtimoiy himoya tizimini ta‘minlovchi statistika ko‘rsatkichlarining xalqaro miqyosda qiyosiylikni ta‘minlash maqsadida, ijtimoiy himoya statistikasi asosiy ko‘rsatkichlarini shakllantirish uslubiyatlarini yanada takomillashtirildi.

Jumladan, ijtimoiy himoya statistikasi ko‘rsatkichlarini hisoblash qoidalarini, ma‘lumotlarni shakllantirishda foydalaniladigan axborot manbalari, individual statistika ko‘rsatkichlarini hisoblash formulalari va rasmiy statistika axborotini tarqatish usullari tartibga solindi.

Aholi soni va harakati, shuningdek, ular bilan bog‘liq boshqa ma‘lumotlar doim jamoatchilik e‘tiborida bo‘ladi. Bu ma‘lumotlar nafaqat davlat idoralari, ilmiy soha yoki ommaviy axborot vositalari vakillari, balki xalqaro jamoatchilik hamda oddiy fuqarolar uchun ham juda qiziq. Shu bois, demografik ko‘rsatkichlarning joriy hisobini yuritish va umuman olganda, demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish tizimi yanada takomillashtirildi.

Xususan, aholi soni va uning tarkibi, qayd etilgan tug‘ilishlar, vafot etishlar, tuzilgan nikohlar va ajrimlar, doimiy yashash maqsadida mamlakat hududiga chet mamlakatlardan ko‘chib kelganlar va chet davlatlarga ko‘chib ketganlar soni, shuningdek, mamlakat ichida bir hududdan boshqa bir hududga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar va kelganlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisobini yuritish va shakllantirish usullari yanada maqbullashtirildi.

Muvofiqlashtirishning tartibli usuli

Mamlakatimizda statistika uslubiyatlarini ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan xalqaro tashkilotlar hamda boshqa davlatlarning rasmiy statistikasi tayyorlovchilari bilan samarali hamkorlik olib borilmoqda.

Xususan, keyingi yillarda BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Statistika bo‘limi, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, UNESCO, UNICEF, Yevrostat, MDH Statistika qo‘mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlar

Birgina 2023-yilda statistika kuzatuvlarini o‘tkazish, statistik hisob-kitoblarni yanada maqbullashtirish va bu boradagi tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan 36 ta yangi uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi hamda tubdan takomillashtirildi.

Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar, narx, qurilish, aholi turmush darajasi, innovatsiyalar, ijtimoiy soha hamda demografiya statistikasi bo‘yicha kuzatuvlar o‘tkazish va hisob-kitoblarni amalga oshirish uslubiyatlarini yanada maqbullashtirildi. Milliy hisoblar tizimi — 2008 yo‘riqnomasiga ko‘ra, asosiy vositalar balansini shakllantirish maqsadida ularning holati va harakatini yillik davriylikda hisoblash

Toshkent shahri yalpi hududiy mahsulotini ishlab chiqarish usulida hisoblash tartibini belgilovchi uslubiy nizom amaliyotga tatbiq qilindi.

YHMni hisoblashning ushbu usuli iqtisodiy faoliyat turli bo‘yicha asosiy narxlarda yalpi qo‘shilgan qiymat va mahsulotdarga sof soliqlar yig‘indisi orqali baholashni ko‘zda tutib, YHM joriy narxlarda, shuningdek, fizik hajm va deflyator indekslarini hisoblash maqsadida doimiy narxlarda baholandi, yillik va choraklik davriylikda shakllantirildi.

Mazkur uslubiy hujjatda YHMni hisoblash tamoyillari, ishlab chiqarish, oraliq iste‘mol va yalpi qo‘shilgan qiymatni joriy narxlarda shakllantirish hamda YHMni doimiy narxlarda baholash tartibi aniq qoidalar va shartli ma‘lumotlar bilan batafsil yoritib berilgan.

Ta‘kidlash lozimki, respublika va hududlardagi narxlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar doim barchamizni qiziqtiradi. Shuni hisobga olgan holda, agentlik tomonidan narx statistikasini takomillashtirib borish bo‘yicha tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yilda iste‘mol bozorida tovarlarning narx darajasini aniqlash yuzasidan kuzatuv tashkil etish ishlari tartibga soluvchi uslubiy nizom yanada takomillashtirildi.

Mazkur uslubiy nizom respublikamiz bo‘yicha statistika organlari tomonidan do‘konlar va bozorlardagi tovarlarning narxlarini kuzatuvini tashkil etish hamda alohida tadbirlar tovarlarning ma‘lum bir davrdagi yoki aniq bir sanadagi o‘rtacha, minimal va maksimal narxlarini hisoblash tartibini belgilaydi.

Shuningdek, sanoat korxonalarini tomonidan xarid qilingan moddiy resurslar hamda asosiy vositalarga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlarini indekslarini hisoblash uslubiyatlarini yanada takomillashtirildi.

Ushbu uslubiyatlar narxlar indeksi shakllanishining asosiy bosqichlari, narxlarini ro‘yxatga olish va narx ma‘lumotlarini yig‘ish tartibi, o‘rtacha narxlarini, narxlar indeksini hisoblash hamda boshqa ko‘rsatkichlarni shakllantirishni aniq qoidalar asosida tartibga soladi.

Sohada ilmiy yondashuvlar bo‘yicha ishlarni davom ettirish maqsadida agentlik tomonidan joriy yilda ham statistikaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha salkam 20 ta yangi uslubiy hujjatlar va 10 ga yaqin statistik tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish hamda mavjudlarini takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

Jumladan, joriy yilda makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar, atrof-muhit statistikasi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslarning hamda shaxsiy avtotransport egalari tashish faoliyatining tanlanma kuzatuvini tashkil

Nazariya amaliyot bilan uyg‘un

etish va o‘tkazish bo‘yicha qator yangi uslubiy nizom, tartib va qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha birlamchi manbalar ma‘lumotlarini kodlashtirish hamda axborot xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishlarida yangi uslubiy hujjatlar amaliyotga joriy etildi.

Alohida ta‘kidlash lozimki, keyingi yillarda qabul qilingan qonunchilik hujjatlar bilan statistika organlarining mustaqilligi yanada mustahkamlangani natijasida hozirgi kunda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan statistika organlari faoliyatiga, jumladan, statistika uslubiyatlarini shakllantirishga aralashish holatlari mavjud emas.

Barcha statistika uslubiyatlarini agentlik huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining yetuk olimlari va ilmiy xodimlari tomonidan tahlilidan o‘tkaziladi.

Shuningdek, o‘zaro hamkorlikda tashkil etiladigan kuzatuvlar va statistika



ma‘lumotlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy hujjatlar respublikaning tegishli vazirligi va idoralari mutaxassislari bilan maslahatlashuvlar asosida tayyorlanadi.

Bu esa statistika uslubiyatlarining yanada puxta va sifatli ishlab chiqilishiga erishish, pirovardida, ularning xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalar, tasnif va uslubiyatlarga muvofiqligini ta‘minlash imkonini bermoqda.

Tayyorlangan rasmiy statistika ma‘lumotlarining shaffofligi, aniqligi, ishonarliligi, beg‘araz va xolisligi to‘g‘risida foydalanuvchilarni xabardor qilish maqsadida ular statistika ma‘lumotlari manbalari va tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlari sifatini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-sayti orqali metama‘lumotlar yordamida xabardor qilib boriladi.


Bundan tashqari, statistika ma‘lumotlaridan foydalanuvchilarning keng ommasi, jumladan, ilmiy va mustaqil izlanuvchilar uchun agentlik rasmiy saytida uslubiy materiallarning elektron kutubxonasi tashkil etilgan.

Kutubxonada statistika faoliyatini tashkil etish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, axborot xavfsizligini ta‘minlash va statistika registrini yuritish bo‘yicha uslubiy materiallar ham mavjud.

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon, ilg‘or innovatsiyalar ko‘lami tobora kengayishi, foydalanuvchilar ehtiyojining o‘sib borishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar imkoniyatining jadal rivojlanishi statistika sohasida ham ilmiy yondashuvlarni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tavsiyalarga mos, ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy bilimlar hamda hozirgi kun talablariga javob beruvchi statistika uslubiyatlarini asosida ishlab chiqilgan O‘zbekistonda oida ma‘lumotlar milliy va xorijiy foydalanuvchilarning aniq, xolis hamda dolzarab ma‘lumotlarga ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi.

Amaldagi statistika uslubiyatlarining bo‘yicha taqsimoti (foizda)



bilan bu borada doimiy tarzda uchrashuv va maslahatlashuvlar tashkil etilmoqda.

Natijada rasmiy statistika sohasida qo‘llanilayotgan uslubiyatlarining umumiy tirof etilgan xalqaro tavsiyalarga muvofiqligini ta‘minlash, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy statistika tizimiga joriy etish maqsadida keyingi yetti yil davomida statistikaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar ko‘lami ikki barobar ko‘paydi.

bo‘yicha uslubiy nizom ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Ma‘lumki, yalpi hududiy mahsulot rivojlanishini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi va hududning ishlab chiqarish natijalari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, o‘shish sur‘atlari va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni taqsimlashda foydalaniladi.

Shuni hisobga olgan holda, agentlik tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va

Gulira'no bug'doylari

Kelajak bunyodkorlariga

Odamlar bor — haydab yurar faqat suruv-suruv gap,
Gulira'no bug'doylari — Farg'onada "duv-duv" gap.
Gulira'no kim o'zi u, deb so'rarsiz ehtimol,
Rishtonidagi "Qayrag'och"da unib-o'sgan navnihol.

Behisht bog'idan nishon deb, dilkash debon, dilrabo,
Bu joylarni maqtab o'tgan hatto Muqimiy bobo.
Aytay endi, ey yoronlar, kelgach gapning xonasi,
Yo'lchiboydir otasi-yu, Ozodaxon — onasi.

Bu "Qutlug' qon" romanida kelgan Yo'lchiboy emas,
Ammo-lekin, nega, do'stlar, bu Yo'lchiboy boy emas?..
Kimlar ig'vo o'chog'iga o't qalab, o't yoqardi,
Diydiragan paykallardan mustaqillik boqardi.

Haq-huquqi toptalgan bir millatning zorlaridan
So'ylar edi uch kunlik don Vatan omborlaridan.
Hamma narsa bor edi-yu, go'yo erk ham bor edi,
Hamma narsa bor edi, lek el-u yurt nochor edi.

O'shal og'ir kunlar aro rag'bat topmay, e'tibor,
Yurtim, ne-ne Yo'lchiboyday dehqonlarning bo'ldi xor.
Yot ellarda xor-u abgor — misli sabil jonlarning,
Mardikorlik bozorlarin to'ldirdi o'g'lonlarning.

Tund, qorong'i kechalarda chirog'ing yonmay sira,
Yupun, g'arib ro'zg'oringni battar etardi xira.
O'sha paytlar boshlangandi fermerlik harakati,
Na barori bor edi, na bor edi barakati.

Er-u xotin fermer bo'ldi yaxshi niyatlar bilan,
Yer olishdi, yer chopishdi ming aziyatlar bilan.
Lekin bordir ushbu ishda ma'lum qonun-qoida:
Barcha ishlov bo'lmog'i shart o'z vaqti, o'z joyida.

Ammo qiziq edi davr: g'oya bor-u, muhit yo'q,
O'g'it bo'lsa, suv tanqisdir, suv bo'lsa gar — o'g'it yo'q.
"Er-u xotin — qo'sh ho'kiz" deb yarim tunda qaytardi,
Ayol boshi bilan xotin traktor ham haydardi.

Bir jafokash oila na tinim bildi, na qo'nim,
Na turmushda fayz bor edi, na ishida bir unum.
Adolat-u halovatdan hech oshnolik ko'rmagan,
Zahmat chekib, jon chekib ham bir ro'shnolik ko'rmagan.

O'shal og'ir zamonlarga bir zum qaytayin endi,
Qiyin kechgan majlislardan bir gap aytayin endi:
Og'zakidan doimo "besh" olib kelgan qalloblar,
El boshiga ish tushganda tirqiragan kazzoblar.

Zamon ichra shikva aylab har to'g'ri-yu egridan,
Otdan tushgan bo'salar-da, tushmagandi egardan.
O'ylamangkim, bu moziydan bir naql yo rivoyat,
Bu — yaqin shu o'tmishdan bir munglug', hazin hikoyat.

Mana shunday kunlar aro tug'ildi u qizaloq,
Misoli bir qizg'aldog'-u misoli bir ismaloq.
Bu xonadon farzandlari — yangi zamonga timsol,
Bir qizaloq o'sdi bunda bug'doy mayyasi misol.

Qiz bolani ne uchun biz "onajon" deb alqaymiz,
Jism-u joni jonga payvand, jonajon deb alqaymiz.
Uch yoshidan otasining yonida u pildirab,
Paykallarga borar edi sho'x irmoqday jildirab.

Gulira'no qo'ygandilar garchi uning ismini,
Bolalikdan sog'inardi bug'doyzorlar isini.
Bir qo'msovdoy kechar edi polaponlik pallalar,
Xayolini band etardi u yam-yashil dalalar.

Qo'sh qizaloq yayrar edi oila gulzorida,
O'g'il bola yo'q edi lek dilbandlar qatorida.
Elda bunday otalarni jannatiy derlar asli,
Umr ayni yoz faslidir, umr saraton fasli.

Inshoolloh, el oldida yorug' bo'lgay yuzimiz,
Otasiga aytdi bir kun Gulira'no qizimiz:
Bag'ringizda mayli shod-u xandon o'ynab-kuloyin,
O'g'lim yo'q deb o'ksinmang hech, men o'g'lingiz bo'loyin.

O'tdi qancha ranj-u alam, o'tdi qancha riyozat,
Mamlakatda el o'zgardi, o'zgardi ham siyosat.
Qaldiroqlar to'ldirganday yer-u ko'k, osmonlarni,
Bosh Me'mori keldi oxir bu davr-u zamonlarni.

Ko'rmayin bu ayyomlarning ko'rkam qasri bunyodin,
Ne-ne Haziniy bobolar hazin o'tdi dunyodin.
"O'tkan kunlar" asorati ketmas hargiz dillardan,
Qodiriy ham bir mehmonday ketmish bu manzillardan.
Ma'murjoni jon berganda navo aylar chog'ida,
Butun bir el jon bergandi Marg'ilonning bog'ida.

Ta'qiqlangan qo'shiqlardan aytin tirik shohidlar —
"O'zbekim" deb armon bilan o'tdi Erkin Vohidlar..
Yangi zamon shiddatidir, o'tar gulduros solib,
Uning har bir toshqinidan bir "Shohnoma" ol yozib.

Nainki bir Farg'onada, borliq kavnu makonda,
Bir tong otdi yarqiragan yangi O'zbekistonda.
Bu she'rinni men atayin yo'rtaga cho'zmadim,
Ona yurtim, xasingdan ham aslo ko'ngil uzmadim.

Garchi tunlar paykalida donday bir so'zga zorman,
O'rog'ing ham, mashog'ing ham, boshog'ingda ham borman.
Bu she'rinni senga bitdim, bosdi hayajon, singlim,
Gulira'no, jon singlim-ay, Gulira'no, jon singlim!

O'zbekiston Qahramoni Lola opa shogirdi —
Qiz bolaning otasiga joni doim og'rirdi.
Zukko edi, Londonlarda olsa bo'ldi ta'lim,
Lekin unga shu zahmatkash zotlar bo'ldi muallim.
Yiroq edi kibr-u havo, soxta sharaf-shonlardan,
Tuproq ilmin o'rgandi u tuproqday insonlardan.

Ona yurtim, men bolangman, qosh-u ko'zim o'zingsan,
Otajonim o'zingdiansan, onajonim o'zingsan.



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Qo'llaringning qadog'ida ming-ming taqdir izi bor,
Kaftlaringda bug'doy isi, non va tandir isi bor.

Gulira'no desam, shu on bug'doy, non isi kelar,
Sog'intirgan singillarining mehribon isi kelar.
Shu boisdan dunyoda eng xushro'yimsan, Vatanim,
Bug'doybo'yim Vatanimsan, xushbo'yimsan, Vatanim!

Sen o'zingsan zahmatlarga bardosh bergan, dosh bergan,
Duo aylab, el-u yurtga quyosh bergan, osh bergan.
Millyon-milloyon botmon bo'ldi ko'targan xirmonlarning,
Oltin boshog' tonglar bo'ldi ming yillik armonlarning!

Hali bu xalq millat bo'lib bunday bug'doy o'rmagan,
Bug'doy o'rib, xirmon ko'rib, bunday xirmon ko'rmagan.
Sadag'asi ketsang arzir davr-u davronlar uchun,
Vatanim deb jonin tikkan mardiy maydonlar uchun!

Shu elimga davlat bersin, g'urur bersin, nomus-or,
Rizq-u ro'zin butun qilsin Yaratgan parvardigor.
Dilbandlarga ona Vatan yagonadir, tanhodir,
Gulira'no bug'doylari — millyon-milloyon tonnadir!

Bir qizingda qancha xislat, qancha hikmat ko'rdim men,
Bug'doyzorlar aro kezib bug'doy so'zim o'rdim men.
Ey Farg'ona, zamonaviy Kumushxonlar diyori,
Gulira'nolarning bugun kelajak bunyodkori.
Shu boisdan dunyoda eng xushro'yimsan, Vatanim,
Bug'doybo'yim Vatanimsan, xushbo'yimsan, Vatanim!..

Obod manzillar

Bundan to'rt yil avval poytaxtimiz markazida qad rostlagan Adiblar xiyoboni tez kelib turadiganlar uchun haqiqiy ma'naviyat maskaniga aylanib borayotir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xiyobon ochilgan dastlabki kezlardan bu go'sha yurtimizning turli hududlaridan keluvchi adabiyotga mehri baland, kitobxon yoshlar bilan gavjum bo'ldi. Ularning aksariyati bunday ziyo maskanlari o'zlarini yashayotgan hududda ham bo'lishini istar edi.

Davlatimiz rahbari 2021-yili Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida "Andijon zaminida yashab o'tgan, o'zidan yaxshi nom qoldirgan mashhur ilm-fan, san'at va madaniyat, adabiyot namoyandalarning o'lmas merosi viloyat aholining bugungi ulkan yutuqlari uchun mustahkam zamin bo'layotgani shubhasiz. Shu sababli bo'lajak Yangi Andijon shahri markazida "Ma'naviyat xiyoboni" tashkil etib,



ularning xotirasiga bag'ishlab yodgorlik o'rnatsak", deya taklif bildirdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining o'tgan yil yakunida bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida ham hududlarda mana shunday maskanlar tashkil etilishi zarurligi aytili. Xayrli tashabbusning qanoti bor, deganlaridek, bugun joylarda Ma'naviyat xiyobonlari tashkil etila boshladi. Yaqinda Toshkent viloyatining Angren shahrida aholi ixtiyoriga topshirilgan ana shunday xiyobonda xalqimiz ma'naviyatga hamisha ehtiyoj sezib yashashiga yana bir bor guvoh bo'ldik.

Bu viloyatdagi birinchi Ma'naviyat xiyoboni emas. Joriy yil 4-aprelda Chirchiq shahri Tinchlik mahallasidagi fuqarolar bilan ochiq muloqotda Toshkent viloyati



hokimi Zoir Mirzayev ushbu manzilda Ma'naviyat xiyobonini tashkil etish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatma bergan edi. Bir oydan ziyod muddatda Ma'naviyat xiyoboni bitkazilib, foydalanishga topshirildi. Davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, ma'naviyat sohasi xodimlari, 22 ta shahar va tuman hokimlari ishtirokida ochilgan xiyobonga kirgan kishi aholining maroqli dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi uchun yetarli sharoit yaratilganini ko'radi.

Xiyobonda o'rnatilgan radiouzeldan taralayotgan kuy-qo'shiqlar kelganlarga ko'tarinki ruh bag'ishlasi, jadidlar ijodidan olingan iqtiboslar yoshlar ma'rifatini boyitishga hissa qo'shadi. Ham ma'nani, ham jismonan

chinqishni istaganlar shaxmat-shashka o'ynaydi, sog'lom turmush tarziga befarq bo'lmaganlar maxsus yo'lakchada yugurib, mashq qiladi. Ko'ngilochar tadbirlar va ma'naviyat ma'rifati kechalarga mo'ljallangan sahna, nuroniylar uchun qulay dam olish o'rindiqlari bayramlarning yanada fayzli o'tishiga xizmat qiladi. Bolalar muzqaymoq pavilyonida miriqib muzqaymoqxo'rlik qiladi, yosh rassomlar manzarali daraxtlar, turfa gullar, ularga hamohang foydalanadilar. Xiyobonda ma'naviyat ma'rifati, ko'ngilochar tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Viloyat markazidagi katta bir bog' hududida "Matonat madhiyasi" yodgorligi o'rnatilganida rosa xursand bo'lgandik. Chunki farzandlarimizni poytaxtdagi



G'alaba bog'iga olib borishga har yili ham imkonimiz bo'lavermaydi, — deydi chirchiqlik Umida Jo'rayeva. — Endi Nurafshonda ham o'ziga xos xotira maydoni bor. Viloyatlarda xiyobonlar, zamonaviy parklar tashkil etilayotgani eng to'g'ri yechim. Chunki yurtimizning qaysi hududida yashashidan qat'i nazar, har bir kishi madaniy hordiq chiqarishga, ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etishga haqli. Buning uchun poytaxtga borish shart emas. Chekka qishloqlarda ham sharoit yaratishga davlatimizning qurbi yetadi.

Ilk Ma'naviyat xiyobonining ochilish marosimida viloyatimiz hokimi barcha tuman va shaharlarda mana shunday ziyo manzillarini tashkil etish kerakligini ta'kidlagach, mas'ullar ishga kirishgan edi, — deydi Angren shahri hokimligi axborot xizmati rahbari Gulshoda Shaxonova. — Shunga ko'ra, Angren shahri "Nurchi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida ham Ma'naviyat xiyoboni tashkil etildi. Xiyobonning shahar markaziy kutubxonasi yonida joylashgani ayni muddao. Yaqinda kutubxona binosida ham ma'naviyat maskani faoliyat boshlagan edi. Kitobxon hamshaharlarimiz kutubxonaga kirmay ketmaydi. Ma'naviyat maskani faoliyati bilan ham tanishadi. Maskanda tungi navbatchilik tashkil qilingan bo'lib, kitobxonlik tadbirlari kechgacha davom etadi. Shu ma'noda,

bir-biriga yaqin bo'lgan Nurchi va Istiqlol ko'chalari endi mazmunan ham uyg'un bo'ldi.

Angrenlik 1500 dan ortiq kishi ishtirok etgan tantanali ochilish marosimida turli ko'rgazmalar namoyish qilindi. Milliy kurash, boks bo'yicha sport musobaqalari tashkil etildi. G'oliblar viloyat hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshkent viloyati bo'limi va Angren shahri hokimligi tomonidan munosib taqdirlandi.

Tadbir qatnashchisi Gulnoza Sattorovanning quyidagi gaplari e'tiborimizni tortdi: "Bolalarimizni istirohat bog'lari-yu sitilargagina emas, Ma'naviyat xiyoboniga ham olib kelsak, qanday yaxshi. Ular ulug' insonlar haqida ko'p ma'lumot oladi, kitob o'qish bo'yicha musobaqalarda qatnashadi, sport bilan shug'ullanadi. Eng muhimi, pul sarflashga zarurat yo'q. Xiyobonning ochilishi har tomonlama ezu ish bo'ldi".

Ha, bugun har ikkala Ma'naviyat xiyoboni nuroniylar, yoshlar va aholining barcha qatlami vakillari bilan doimiy gavjum. Yoshlar o'rtasida olomon madaniyati, G'arbga taqlid uchrab turgan bir paytda xalqona maskanlarda o'tkazilayotgan bayram-u tadbirlar samarasi ma'naviyatimiz rivojiga xizmat qiladi deb ishonamiz.

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2413.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy